

DUTOR BAS IJROCHILIGI TARAQQIYOTI PEDAGOGIK ASOSLARI

Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li

Nazirullayeva Nodira Akmal qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistrantlari

Annotatsiya. Mazkur maqola dutor bas cholg'usining yaratilish tarixi va ushbu cholg'u haqida keng qamrovli ma'lumotlar, mashhur dutor baschi ustozlar va ularning ijodiy faoliyati, dutor bas cholg'usining o'quvchilarga o'rgatish talablari, O'zbekistonda dutor bas ijrochiligi taraqqiyoti hamda o'quvchilarda ijro mahoratini oshirish uchun samarali bo'lgan pedagogik metodlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: pedagog, o'quvchi, ijrochi, Z.Z.Turapov, musiqa, dutor bas, A.N.Petrosiyans, diapazon, pastanovka, bastakor, zamonaviy metod, san'at, tatqiqotchi, professor.

Аннотация. В данной статье рассматривается история создания бас-дударного инструмента, приводятся всесторонние научные сведения о данном музыкальном инструменте, анализируется творческая деятельность известных исполнителей бас-дудара. Также освещаются требования к обучению учащихся игре на бас-дударах, этапы развития исполнительства на бас-дударах в Узбекистане, а также эффективные педагогические методы, направленные на повышение исполнительского мастерства учащихся.

Ключевые слова: педагог, учащийся, исполнитель, З. З. Турапов, музыка, бас-дудар, А. Н. Петросянц, диапазон, постановка, композитор, современные методы, искусство, исследователь, профессор.

Abstract. This article examines the history of the creation of the bass dutar instrument and provides comprehensive scholarly information about this musical instrument. It also analyzes the creative activities of renowned bass dutar performers. In addition, the study discusses the requirements for teaching students to play the bass dutar, the stages of development of bass dutar performance in Uzbekistan, and effective pedagogical methods aimed at enhancing students' performance skills.

Keywords: pedagogue, student, performer, Z. Z. Turapov, music, bass dutar, A. N. Petrosyants, range, performance technique (posture), composer, modern methods, art, researcher, professor.

O'zbek xalqi jahon tarixiy taraqqiyotiga o'zining qadimiy ilm-fani, adabiyoti, san'ati va madaniyati bilan ulkan hissa qo'shgan buyuk millatdir. Bugungi kunda har bir sohada yuqori natijalarga erishish, yangi marralarni zabt etib, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shish har birimizning muqaddas burchimiz hisoblanadi. Yurtimizda san'atga, xususan musiqa san'atiga ko'rsatilayotgan e'tibor, puxta rejalar asosida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida respublikamizda istiqomat qiluvchi insonlarning musiqa san'atiga bo'lgan mehri oshmoqda. Yurtboshimizning tegishli qaroriga ko'ra "umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari tashkil etilgan badiiy havaskorlik jamoalari uchun 7 turdagi milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish kozda tutilgan edi. Chunki musiqa san'ati til va millat tanlamaydi. Butun dunyo musiqa san'ati ixlosmandlari aynan musiqa orqali o'zaro fikr almashadilar. Milliy musiqa san'atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng

tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biri, real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan. Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin degan fikrni ilgari surgan edi. Qadimiy va boy tajribaga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati istiqbolini amalga oshirish ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta'kidlash joizdir. Bu maktablarda musiqa ta'limi-tarbiyasi bevosita oshirib borilgan. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan. Musiqaning so'z san'ati va adabiyoti bilan uzviy holda bog'lab o'rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo'shadi.

O'zbek xalqi dunyoning ko'pgina xalqlari kabi o'ziga xos cholg'ulariga bo'ydir. Uzoq-o'tmishdan cholg'ular xalq tomonidan ardoqlanib kelinadi. Shu bilan birga, har bir cholg'u zamonisiga yarasha takomillashtirib kelinadi. O'zbek musiqa san'ati amaliyotida dutor, tanbur, sato, chang, nay, qonun, g'ijjak, rubob, surnay, doira, nog'ora kabi milliy cholg'ular bor. Ularning har biri ijrochilik jarayonida shakillanib, rivojlanib kelganki, amaliyotda esa o'z o'rnini va mavqeyini saqlab avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

O'zbekistonning XX asr musiqa madaniyati va san'ati umumjahon madaniyati bilan o'zaro aloqalari, bir-biriga bo'lgan ta'siri natijasida yangi-yangi yo'nalishlar, ijodiyot sarchashmalari yuzaga keldi. Bu jarayon o'zbek cholg'ushunoslik sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. Ayniqsa, milliy o'zbek cholg'ularini takomillashtirish sohasi yangi o'zgacha sahifa sifatida kirib keldi. Bu albatta o'zbek musiqa san'ati ijrochiligining dunyo miqyosidagi o'rnini yangilanib borayotgani bilan ham bog'liq edi. Chunki, ilgari yakkanozlik, yakkaxonlik va ayrim holdagi qisqa ansambl ijrochiligi, yangicha yo'nalish, ya'ni katta ansambl, orkestr ijrochiligi kabi yo'nalishlar bilan boyib bordi. Shu sabab, O'zbekistonda cholg'ushunoslar, cholg'u ijrochilari va orkestr rahbarlarida bir masala, orkestr tarkibini xos cholg'ular bilan boyitish fikri paydo bo'ladi. Nihoyat 1930 yilning o'rtalariga kelib Toshkent musiqa bilim yurtida bu muammolarni yechish boshlanadi. Bilim yurti ustaxonasi ustalari V.A.Romanchenko, A.A.Kevxayans, S.E.Didenkolar o'zbek xalq cholg'ulari asosida orkestrga mo'ljallab cholg'ular yasash ishiga qo'l uradilar. Maqsad, o'ziga xos orkestr yaratish edi. Ustalar "yo'g'on – bas" tovush tarannumi uchun maxsus cholg'u yaratishlari zarur bo'ldi. Shu tufayli milliy cholg'u - dutorning "oilasi"ni tuzib, o'ziga xos shaklga ega bo'lgan cholg'u yaratishga muvaffaq bo'ladilar. Uni dutorning yo'g'on ovozlisi sifatida "Dutor bas" deb ataydilar. Ilk bor bu cholg'u orkestrga mo'ljallangailigi sababli birinchi ko'rinishini dastasi yo'g'on, diapazoni ham unchalik katta bo'lmagan, lekin kutilgan ovozga ega cholg'u, lekin ijro imkoniyatlari cheklangan edi. Bu albatta ijrochilarni qoniqtirmasdi. Chunki, cholg'uda musiqiy asar ijro etishda bir oz qiyinchilik mavjud edi. Keyinchalik cholg'u ustida takomillashtirish ishlari olib borildi. O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining tajribalar laboratoriyasida A.I.Petrosyans, S.E.Didenko va cholg'u ijrochilari hamkorligida ustalar tomonidan davom ettirildi. Cholg'u imkoniyatlarini yaxshilash, ijro qulayliklari va ovoz diapazonini kengaytirishga erishildi. Natijada 1950 yillarning boshlariga kelib, o'ziga xos dutor basning bir namunasi bunyodga keladi.

Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasi) tasarrufidagi "Milliy cholg'u ilmiy ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi" arxiv hujjatlaridan foydalanish jarayonida o'sha paytdagi Toshkent davlat konservatoriyasi rektori X.R.Raximovning o'quv laboratoriyasi

xodimlari S.E.Didenko va A.I.Petrosyans buyurtmalari bilan Moskvaga ixtiro etish va ochish ishlari bo'yicha davlat qo'mitasiga dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas. dutor kontrabas cholg'ularini ishlab chiqarish uchun ruhsat beruvchi guvohnoma berilishini so'rab xat yozadi. Ushbu nusxalar Monrealda bo'lib o'tadigan Xalqaro ko'rgazmada namoyish qilinishini ta'kidlab o'tadi. Shu tarzda 1966 yili cholg'u ovoz sifati sofligi bilan ajralib turuvchi, diapazon hajmi jihatidan ham ancha kengaygan namunasi yaratildi. Diapazon hajmi katta oktava "Do" dan ikkinchi oktava "lya" gacha. Cholg'u imkoniyatlari nafaqat orkestr tarkibida jo'rmovozlik jihatlariga, balki yakkanovozlik xususiyatlariga ham ega bo'lganligi namoyon bo'ldi. Bunda, cholg'u avvalgiga qaraganda menzurasi kichraytirilgani, kosaxonasi nisbatan ixchamlashtirilganligi, dastasini (qulay bo'lishi uchun) ingichkalashtirilganligi ham sabab bo'lsa ajab emas. Bu cholg'u ijrochilik imkoniyatlarini kengayishini ta'minlab, ijrochilarga ancha qulaylik yaratdi. Dutor bas sozi haqida umumiy ma'lumot berib o'tamiz.



Dutor bas sozining tuzilishi uch asosiy qismdan iborat: kosa, pardalik dasta va mexanik quloqli bosh qismi. Kosa bir nechta yupqa yog'och bo'lakchalaridan hosil bo'ladi, ular o'zaro birikib, bir butun shaklni tashkil qiladi. Kosaning ustki yassi qismida rezonator (teshikchali ovoz o'tkazuvchan) sifatida ishlatiladigan yog'och qopqoq o'rnatilgan. Soz chalish paytida yog'och qopqoq mediatorning zarbidan zarar ko'rmasligi uchun ustidan "qalqon" deb nomlangan qo'shimcha yog'och qatlami joylashtirilgan. Kosaning yuqori qismida esa torlarni kerakli balandlikda ushlab turuvchi xarrak mavjud bo'lib, u sadolanishi zarur bo'lgan torlarning pastki chegarasini belgilaydi. Cholg'uning dastasi yuqorida har ikki tomondan torlarni tarang qilib turuvchi, buraluvchi mexanik quloqlar o'rnatilgan bosh qismiga borib taqaladi. Dastaning yuz qismiga pardalik qatlam yopishtirilgan, unda xromatik

tartibga asoslangan pardachalar ko'ndalangiga qadalgan. Pardalar bosh qismidan kosa tomonga qarab sanab boriladi. Dutor basda to'rtta tor bo'lib, birinchisi "Lya" ichak yoki kaprondan, ikkinchisi "Re" uchinchi "Sol" va to'rtinchi "Do" torlar metallardan yasalgan. [N4,13b]

Dutor bas cholg'u ijrochiligi san'ati haqida gapirganda, uning amaliyotda tashkil etilishi, bolalarga ta'lim berish, malakali ijrochilarni tayyorlash, maktablar yaratish, sifatli cholg'ularni ishlab chiqarish va yoshlarga sifatli ta'lim berish muhim o'rin tutadi. Bu borada, albatta, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, professor Ashot Konstantinovich Nazarovning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Ashot Konstantinovichning dutor bas ijrochiligi san'atidagi o'ziga xos yutuqlari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijda ham keng e'tirof etilgan. O'zbekistondagi davlat konservatoriyasida 42 yil davomida murabbiylik faoliyatini olib borgan professor Nazarov "O'zbek

xalq cholg'ulari" yo'nalishida, ayniqsa dutor bas ijrochiligi bo'yicha 50 dan ortiq oliy ma'lumotli sozanda va ijrochilarni tarbiyalab yetishtirdi.

Bulardan Turg'un Pattaxov, Baxtiyor Ziyayev, O'tkir Oripov, Iosif Ismailov, Sadullo Muqumov, Abdusattor Malikov, Muhammadjon Badalov, Sherzod Umarov, O'ktam Saydaliev, Qurbon Hoshimov, Zulخورbek Turapov, Haytmurod Primov, Sirojiddin Muhammedov, Saloxiddin Eraliev, Farrux Irisov, Odil Ro'ziev, Rustam Ergashev, Haydarali Rahmonov, Dilshod Hakimov, Qurbonboy Hoshimov, Dilshod Madiev, Mirzaxon Jo'raev, Valijon Dadaxonov, Abduvohid Xalikov, Ta'latjon Botirov, Mashhurbek Turdiboev, Umid Ibragimov ustozdan olgan saboqlariga tayangan holda Respublikamizning turli san'at dargohlarida muvaffaqiyatli mehnat qilmoqdalar.

O'quvchi stul o'rindig'ining 2/3 qismida orqaga suyanmasdan, gavdani to'g'ri tutgan holda o'tiradi. O'tirganda o'quvchi o'zini erkin va bermalol his etishi lozim. Bel egilmasdan to'g'ri turishi kerak. Yelka hiyol (ozgina) oldinga intilgan holda bo'ladi. Oyoqlar yelka kengigida joylashib, yerga butun kafti bilan tiraladi. O'ng oyoq to'g'ri burchak bilan hiyol o'ng tomonga burilib, chap oyoq bir qadar oldinga uzatiladi. Cholg'uning kosa qismi tagi bilan o'quvchining o'ng oyog'ining soniga qo'yiladi va yuqori qismi qirrasidan bilan o'ng yelka oldiga yaxshilab joylashtiriladi. Kosaning yuqori qismi o'ng tomondan ko'krak bilan ohista ushlab turiladi. Cholg'uning bosh qismi hiyol oldinga qiyalatilgan holda, yelka chap qo'l bilan qiya holatda ushlab turiladi. Cholg'uning yuz tomoni tinglovchiga shunday qaratilgan bo'lishi kerakki, o'quvchi pardalarni aniqlab turadigan bo'lsin.

Grifli dasta chap qo'l bosh barmog'ining ikkinchi bo'g'imidagi yumshoq joyi bilan ko'rsatkich barmoq asosi o'rtasida turadi. Qo'l harakatiga qarshilik ko'rsatmasligi uchun bosh barmoq dastani siqib tutmasligi (ushlamasligi) lozim. U ko'rsatkich barmoq oraliq'iga qarama-qarshi turgan holda avaylab tutib tursa bas. Ko'rsatkich bilan bosh barmoqning bu holati panjaning grif bo'ylab cholg'u kosasi tomon harakatiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Chap qo'l tirsagi pastga erkin tushgan holatda bo'ladi. Panja to'g'ri tutilib, kishi yelka oldi qismining davomidek bo'lib ko'rinadi. Uchunchi, to'rtinchi torda ijro qilinayotganda chap qo'l tirsagi bir qadar oldinga (o'ngga) siljiydi. Dutor basni ijro qilganda asosan chap qo'lning to'rtta barmog'i ishtirok etadi: ko'rsatkich (1), o'rta (2), nomsiz barmoq (3) va jimjiloq (4). Ayrim holatlardagina to'rtinchi tor bosh barmoq (5) ishlatiladi. Barmoqlarning barchasi grifda egik holatda joylashadi. Faqat jimjiloq (4) tor uzra to'g'ri tarang holatda turadi. Barmoqlarni pardalar o'rtasida emas, balki ostonachalarni yaqinroq joyga qo'yish tavsiya etiladi. Har bitta barmol erkin va o'z holicha harakat qilgani maqsadga muvofiqdir. Kuy ijro qilayotgan paytda ularni grifdan juda ham baland ko'tarib yubormaslik kerak. Bu texnikani ijro etish qoidalarini o'zlashtirib olishga halal beradi. O'ng qo'l quyi ostonachadan yuqoriroqda, kosaning chekkasiga, yelka oldiga qariyb bir tirsak bo'g'inining yoni bilan qo'yiladi. Pastga tomon hiyol egilgan, mediatorni panja torlarga rezonator teshikchasiga yaqin eng yaxshi va shirali ovoz beradigan joyda tushiriladi. Dutor bas mediator yordamida ovoz beradi. Mediator o'rta qattqlikdagi plastmassadan (ebonitdan) yasalgan tuxumsimon ko'rinishdagi plastinkadir.

Mediatorning taqribiy kattaligi quyidagicha: balandligi 3 sm., kengligi (mediatorning o'rtasi) 1.5-2 sm., qalinligi 1.5-2 mm. Mediatorning torga tegib turadigan uchli tomoni uning ishchi qismi hisoblanadi. Mediatorning ishchi qismidagi har bir tekis tomoni o'ng qirrasidan yo'niladi va jilolanadi. Yuqori qismiga har tomondan mediatorni mahkamroq tutib turish uchun mayda ariqchalar (chegalar) tushiriladi. Mediator o'ng qo'lning ko'rsatkich va bosh barmoqlari orasida ushlanadi. Uni ko'rsatkich barmoqning tirnoqli bo'g'iniga yon tomondan yotiq holda qo'yib, bosh barmoqning yumshoq uchi bilan ishchi qismi (3-4 mm.) tashqariga chiqib turadigan qilib siqib ushlanadi.

Mediatorni torga nisbatan u yoq-bu yoqqa aylantirish qulay bo'lishi uchun bosh barmoq bukik (bukilgan) holatda tutib turiladi. O'ng qo'lning hiyol bukilgan hamma barmoqlari yarim aylana hosil qilgan cha kaftga yig'iladi. Torlar ustida erkin harakat qilishi uchun panjani iloji boricha keng tutish tavsiya etiladi.

O'quvchining musiqiy bilimini oshirish uchun shaxsiy o'quv ish rejasidagi asarlardan tashqari ularga turli mazmundagi bir necha musiqa asarlarini notadan o'qish vazifasi topshiriladi. Mutaxassislik sinfida notani o'qish ishlari o'quvchilarning o'zlashtirishiga har tomonlama yordam beradi. Shu sababli o'quvchi asarlarni yod olish bilan bir qatorda notani varaqdan o'qishni ham o'rgana borishi zarur. Nota nomlarini varaqdan o'qish va tahlil etish bir-biriga bog'liqdir.

O'qituvchi o'quvchiga varaqdan o'qish va tahlil etish uchun tegishli musiqa asarlarini puxta o'ylab tanlashi, bunda o'quvchilarning darsga qiziqishi va talablarini, qobiliyati va shaxsiy hususiyatlarini hisobga olishi kerak. O'quvchilarning ansambl va orkestrda mustaqil ijro etishlarida ham notani varaqdan ongli ravishda to'g'ri va tez tahlil etish katta ahamiyatga ega.

Ushbu vazifalar to'liq bajrilgandan so'ng, o'quvchi ijro malakalariga erishadi va yakka, ansambl, orkestr tarkibida bemalol ijro qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Eslatib o'tamiz, dutor-bas cholg'usi o'zbek xalq cholg'u ansambl va orkestr tarkibida ham ishtirok etib, bas tovushini mustaxkamlash uchun xizmat qiladi. Ushbu cholg'uni sozanda o'tirgan holda ijro etadi. Dutor bas – dutorning kattaroq o'lchamdagi turi bo'lib, to'rtta toridan iborat. Bu torlar kvinta intervali bo'yicha sozlanadi. To'rtinchi tor katta oktavada joylashgan “do” notasi, uchinchi tor katta oktavada “sol” notasi, ikkinchi tor kichik oktavada “re” notasi va birinchi tor kichik oktavada “lya” notasi bilan sozlanadi. “Lya” tori ichakdan tayyorlanib, boshqa torlari esa metallardan tayyorlangan. Notalar asosan bas kalitida yoziladi. Dutor basning ovoz diapazoni katta oktavadagi “do”dan birinchi oktavadagi “sol”gacha cho'ziladi. Uning menzura uzunligi 650 mm ga teng.

O'zbek musiqa san'atida cholg'u ijrochiligi muhim yo'nalish hisoblanadi. XX asrning 30-40 yillarida xalq cholg'ulari orkestrida foydalanish, tovush ko'payishini kuchaytirish va sozlanishini takomillashtirish maqsadida o'zbek xalq cholg'ulari takomillashtirilgan. Bu jarayonda bastakor va sozanda Ashot Ivanovich Petrosyans (1910-1978) ham faol ishtirok etgan. U xalq cholg'usini takomillashtirishda qatnashgan, Dutor bas kabi yangi turdagi cholg'ularni yaratgan. A.I.Petrosyans 1952 yili birinchi bo'lib “Dutor bas ijrochiligi” nomli qo'llanma yaratib, mazkur cholg'uning besh chiziqli nota yozuvida ijro yo'llarini belgilab bergan. Ushbu qo'llanmada u: “Dutor bas yangidan yaratilgan cholg'u bo'lib, tovush hajmi bo'yicha quyi registrga ega. Uning notasi bas kalitiga yuqori registr – tenorda yoziladi”.

Ta'kidlash lozim, A.I.Petrosyansning Dutor bas cholg'u ijrochiligi uslubi ilmiy xususiyatga ega bo'lsa ham, undan Bolalar musiqa va san'at maktablari, san'at va madaniyat kollejlari mashg'ulotlarida foydalanish qo'l keladi. Chunki bu ijro uslubi qulay, oson va tabiiydir. “Dutor bas cholg'usi mediator bilan ijro qilinadi va turli ijro zarblari (shtrixlar) qo'llaniladi, shuningdek o'ng qo'lda pizzikato chalinishi ham mumkin”. Yetuk sozanda-ijrochini tarbiyalashda birinchi mashg'ulotlaridanoq ijro etish holatiga (postanovkaga) jiddiy e'tibor beriladi. Sababi, ushbu xolatning o'quvchi tomonidan noto'g'ri o'zlashtirilishi kelajakda ijro maxoratining o'sishiga salbiy ta'sir etadi. Shuningdek qo'llar xolati, mediatorni erkin ushlab ko'nikmalari asta-sekin singdirib boriladi. Ikkala qo'lda ham bir hil kuchdagi zarbaga ega bo'lish uchun maxsus mashq va gammalar chalish tavsiya etiladi. Notaga qarab chalish va to'g'ri ishlay bilish ko'nikmalarini o'zlashtirish ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Dutor bas cholg'usi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan

o'quvchilar o'z yo'nalishlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar jarayonida yakka cholg'uchilik orkestr va ansambllarda o'z ijro mahorati, ko'nikma va bilimlarni amalda qo'llab yakka cholg'u ijrochilik qoidalariga amal qilishni o'rganish, cholg'uchilarga qo'yiladigan talablarga qat'iy rioya qilgan holda ishlashlari talab qilinadi. Ichki va tashqi intizomni shakllantirib kelajakdagi ijod yo'llarida ham tartib intizomlarga ko'nikib borishlari, o'z ijodlari, jamoa ijod faoliyatlariga hurmat bilan yondoshishlari talab etiladi. Ijro mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi omillardan yana biri - mashhur cholg'uchi-sozandalarning ijodi bilan tanishib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashhur cholg'uchi-sozandalarning ijodi bilan o'quvchi-talabalarni tanishtirib borish ustoz zimmasidagi vazifalardan biri hisoblanadi. Har bir kuyni ijro etishdan avval ushbu kuyni mashhur, taniqli ijrochilari, ular qaysi maktab vakillari ekanligi haqida ma'lumot berish ustoz vazifasidir. Bu ijrolarning audio yozuvlari bilan tanishirib, dars o'tish ijodiy natijalarga xizmat qiladi. Mashhur sozandalar yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga kiritish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifa yana ustozlar zimmasiga yuklatiladi. Berilgan kuyni boshqa ijrochilar, boshqa ijrochilik maktabi vakillarini ham magnit yozuvlarini topib talaba sozandaga navbatma-navbat eshittirib, ustoz ijrochilik maktablar farqi, yutuq va kamchiliklarini qiyoslab tushuntirish ustozshogird tizimining zamonaviy ko'rinishi bo'ladi.

O'quvchilari bilan dars o'tish jarayonida har bir darsda nazariy bilimni amaliy ijro bilan uyg'unlikda olib borish yaxshi natijalarga olib boradi. Cholg'uning yaralish tarixi, ijro imkoniyatlari, diapazoni, sozlanishi, ijro zarblari kabilarni takrorlab borish o'quvchi bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir darsda ijro holatiga e'tibor bilan qarash, turli mashqlar, gammalar ijro etib, oddiydan murakkab tomon borish tavsiya etiladi. Ijro mahoratini oshirish uchun o'quv material - gamma, mashq, etudlar muhim vosita hisoblanadi. Bunda notadan o'qish qobiliyatini rivojlantirish, transportlash uchun, eshitib ijro etish, improvizatsiya qilishga material, repertuar tanlash muammosi doimo dolzarb bo'lib, o'quv, pedagogik va konsert repertuarlari o'quvchi-talabalarning musiqiy va ijrochilik malakalarini shakllantirish mazmunining asosi hisoblanadi. Har bir o'quvchi - talaba rivojlanishiga yo'naltirilgan eng qulay repertuar tanlash pedagogik mahoratning muhim ko'rsatkichidir. Repertuar tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan badiiy repertuar.
2. Mustaqil ta'lim uchun yangi o'quv materiallari (gamma, mashq etud, musiqiy asar).
3. Asar tuzilmasini o'zlashtirish uchun repertuar.
4. Takrorlash uchun repertuar.

Hozirgi zamon musiqasi odamlarga his hayajon berish bilan cheklanmay balkiy uning estetik madaniyatini o'stiradi, chunki madaniyatli, savodli insonga jahon san'atining yuksak badiiy asarlarini o'rgatish mumkin. Musiqiy ta'lim jarayonida repertuar tanlashdagi zamonaviy yondashuvlarning yetarli darajada qo'llanilmasligi, ya'ni texnologik vositalarning cheklanganligi, talabaning intellektual va madaniy salohiyatining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday holatlar, ayniqsa, musiqaning san'at sifatida tushunilishi va baholanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida foydalanilayotgan repertuar yetarli darajada yangilanmagan taqdirda, talabalarda san'at asarlarini chuqur tahlil qilish, musiqiy tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, ijodiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlari cheklanadi. Ko'pincha, bunday biryoqlama yondashuv natijasida musiqiy asarlarning estetik va pedagogik qiymati pasayadi, bu esa talaba ongida san'atning haqiqiy mohiyatini anglashga xalal beradi.

Zamonaviy kompozitorlarning asarlarini o'quv repertuariga kiritish orqali esa talabalar nafaqat yangi musiqiy uslublar bilan tanishadilar, balki klassik va zamonaviy ijrochilik texnikalari orasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu holat ularning ijodiy tafakkurini kengaytiradi, musiqiy didini rivojlantiradi va o'ziga xoslikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda mavjud bo'lgan texnologik vositalar, raqamli platformalar va multimedia resurslari musiqiy ta'limni yanada boyitish, dars jarayonini interaktiv va samaraliroq qilish imkonini beradi. Shunday qilib, repertuar siyosatidagi zamonaviy yondashuv talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Repertuarni tanlashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan holat bu uning turfa xilligidir. Zamonaviy cholg'u ijrochisi klassik hamda ommabop folklor musiqasini ham ijro eta oladigan yuqori malakali va intellektual rivojlangan musiqachi bo'lishi zarur. Xalq musiqa ijodiyotini yangicha talqinini, ifodalash imkoniyatlarini yaratish uchun imkoniyatdir. Hozirgi vaqtda bu jarayon ko'p qirrali xarakterga ega; xalq og'zaki ijodiyoti, folklor va folklor musiqalarini ansambl uchun qayta ishlash, ularning asl ohangi va mazmunini saqlab qolgan holda zamonaviy ijro talqinlarini yaratish.

Klassik musiqa-bu insoniyat madaniy merosining eng yuksak badiiy ifodasi bo'lib, u har qanday cholg'u ijrochisi uchun o'quv-pedagogik va sahna repertuarining ajralmas asosini tashkil etadi. Ushbu janr asarlari nafaqat texnik mahoratni rivojlantiradi, balki talabaning musiqiy tafakkuri, estetik didi va badiiy idrokini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Klassik musiqani chuqur o'rganish orqali talabalar murakkab ijrochilik usullarini egallaydi, musiqiy asarlarni teran tahlil qilishni, hissiyot orqali ifoda etishni va sahnada erkin ijro qilishni o'zlashtiradilar.

Pedagogik nuqtayi nazardan olib qaralganda, klassik asarlarni o'rganish-bu nafaqat individual rivojlanish, balki ansambl tarkibida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, musiqiy jamoada muvofiqlikni his qilish, hamohanglikda ijro etish qobiliyatlarini mustahkamlash uchun ham zarurdir. Bu jarayon cholg'u ijrochiligining professional bosqichga ko'tarilishida, shuningdek, umumiy va maxsus musiqiy iste'dodlarni har tomonlama rivojlantirishda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Shu bois, klassik musiqaning repertuardagi o'rni beqiyos bo'lib, u talabaning ijodiy shakllanishida, musiqiy saviyasini oshirishda va badiiy o'sishda poydevor bo'lib xizmat qiladi.

To'g'ri tanlangan repertuar ta'lim oluvchining ijobiy hislarini, musiqiy tajribasini boyitadi. Konsert repertuarlarida ishlatiladigan ohanglarning semantik va mantiqiy boyligi ishni osonlashtiradi, idrokning passivligini yengishga yordam beradi, tasavvurni uyg'otadi, hayajonli va badiiy tasvirlarni ijodiy izlashga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi.

O'qituvchilar zarur repertuarlarni izlash uchun ko'p vaqt sarflashadi, chunki o'quv jarayonida repertuar muhim ahamiyat kasb etadi. Repertuarining tarbiyaviy roliga o'qituvchi e'tiborining yetishmasligi badiiy jihatlar va qiziqishlarning o'z-o'zidan, maqsadsiz rivojlanishiga olib keladi. Shu bois, o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri sozandalik mashg'ulotlari boshidanoq har bir talaba uchun repertuarni puxta rejalashtirib, uni aniq maqsadlarga yo'naltirishdan iboratdir. Repertuar tanlanayotganda o'qituvchi, avvalo, ikki asosiy masalaga e'tibor qaratishi lozim:

1. Talaba tanlangan asar orqali qanday yangi bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi?
 2. Shaxsda qaysi ijobiy jihatlar shakllanishiga, ijodiy rivojlanish mazmuniga qanday yordam beradi?
- Musiqiy asar ijrochiligining ongli maqsadli faoliyat sifatida badiiy va mahorat (texnik) jihati mavjud bo'lib, zamonaviy ijrochilik nazariyasida mahoratli ijrochilik nazariyasi badiiy jihatdan talqin qilish nazarda tutiladi. Ijrochining mantiqiy fikrlashida mahorat jihatdan badiiy ijro etish qoidalarini hal qilishda yordam beradigan nazariy komponent sifatida qarama-qarshilikka ega bo'lishi mumkin.

Odatdagi ijrochilik davrida (varoqdan o'qish, transpozitsiyalash, improvizatsiya qilish) tovush sifati - eng nozik, ayni paytda ijrochilikdagi badiiy qiymatning eng muhim ko'rsatkichidir.

Musiqaning nazariyasining ahamiyati, uning qoidalari, tushunchalari va terminlarini o'zlashtirish ijrochilik amaliyotida o'z bilimlari darajasiga bog'liqligi bo'yicha ikki yo'nalishdagi yondashuv asosida tahlil qilinadi:

A) asarning shakli, musiqiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini bilish;

B) matnni tezkor tahlil qilish, uni o'rganish, ijro etish va xotirada saqlash.

Musiqani notadan o'qish jarayoni nota, zarb (shtrix) va boshqa belgilarga tayanishni talab qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy fikrlash ritm, ohang, akkord kabi nazariy materiallarning belgilanishi bilan ishrochilikdagi ahamiyatini avtomatlashgan shakldagi o'zlashtirish darajasiga yetkazish ijrochilik texnikasining muhim sharti sanaladi.

Xulosa. Yurtimizda dutor bas ijrochiligining shakllanishi va taraqqiyoti bo'yicha olib borilgan ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mazkur cholg'u nafaqat milliy cholg'ularimiz tizimida yangi ijrochilik yo'nalishini yuzaga chiqargan, balki pedagogik jarayonda ham samarali o'rin egallamoqda. Dutor basning yaratilish tarixi, uning texnik va tembr imkoniyatlari, shuningdek, mashhur ijrochilar tomonidan shakllantirilgan ijrochilik maktablari o'zbek musiqasi san'ati rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarga dutor basni o'rgatish bo'yicha qo'yiladigan talablar, samarali pedagogik metodlar va ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari o'rganildi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, o'qitish jarayonida to'g'ri metodik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning ijro mahoratini sezilarli darajada oshiradi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va mustaqil ijrochilik tajribasini shakllantiradi.

Umuman olganda, dutor bas ijrochiligini yanada rivojlantirish, ushbu cholg'uga oid ilmiy-uslubiy bazani boyitish hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlarni takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Maqola natijalari kelgusida dutor bas ijrochiligi bo'yicha yangi izlanishlar, qo'llanmalar va uslubiy tavsiyalar yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlar bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 8 fevraldagi soni.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T. 2017.
3. Nazarov A.K. Dutor bas darsligi. -T. O'qituvchi 1983.
4. Turapov Z. Dutor-bas o'quv qo'llanma, -T. 2004.
5. Turapov Z. Dutor-bas darslik. -T. 2022.
6. <http://www.kitob.uz>
7. <http://www.innovatsiya.uz>